

## KORXONA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA PROGNOZLASHTIRISH O’RNI

**Sulaymonova Zubayda**

**Nortoyloqova Sevinchoy**

**Ro’ziboyeva Kamola**

*Guliston davlat universiteti Menejment  
yo`nalishi talabalari*

**Turayeva Gulizahro**

*Guliston davlat universiteti o`qituvchisi*

***Annotatsiya.** Ushbu tezisdagi boshqaruv hisobida prognozlashning nazariy asoslari, turlari va maqsadlari yoritilgan. Prognozlash orqali korxonalarda strategik qarorlar qabul qilish samaradorligi tahlil qilinadi. “Navruz Tekstil” MChJ misolida prognozlash asosida erishilgan natijalar amaliy jihatdan ko‘rsatib berilgan. Ishda mahalliy va xorijiy adabiyotlar, statistik ma’lumotlar hamda grafik tahlil usullari qo‘llanilgan.*

***Kalit so‘zlar:** boshqaruv hisobi, prognozlash, moliyaviy tahlil, qaror qabul qilish, korxonalar faoliyati, xarajatlar, strategik rejalashtirish.*

### KIRISH

Bugungi raqobat kuchli bo‘lgan bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar oldida samarali boshqaruv tizimini shakllantirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, boshqaruv hisobida prognozlash orqali kelgusidagi moliyaviy va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini oldindan baholash va tahlil qilish orqali to‘g‘ri qarorlar qabul qilish imkoniyati kengayadi. Prognozlash usullaridan foydalanish korxonaga resurslarni oqilona taqsimlash, xarajatlarni kamaytirish va foydani oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu mavzuda prognozlashning nazariy asoslari, turlari, maqsadlari va amaliy ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Boshqaruv hisobi – bu rahbariyatga strategik va taktik qarorlar qabul qilishda yordam beruvchi ichki axborot tizimidir. **Prognozlash** — bu kelajakdagi moliyaviy va operatsion ko‘rsatkichlarni oldindan aniqlash jarayonidir. U boshqaruv hisobining muhim elementi bo‘lib, rahbariyatga strategik va taktik qarorlar qabul qilishda asos bo‘ladi. Boshqaruv hisobidagi prognozlash orqali tashkilot o‘zining kelajakdagi faoliyatini rejalashtiradi, potensial xatarlarni baholaydi va imkoniyatlardan foydalana oladi. Bu jarayon budjetlashtirish, risklarni kamaytirish va resurslarni oqilona taqsimlashda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur mavzu doirasida prognozlashning boshqaruv hisobidagi o‘rni, turlari va asosiy maqsadlari chuqur tahlil qilinadi.

1-jadval

## Prognozlash turlari va ularning maqsadlari

Prognozlashtirish turlari	Maqsadi
Moliyaviy prognoz	Daromad va xarajatlarni oldindan baholash
Operatsion prognoz	Ishlab chiqarish hajmini rejalashtirish
Strategik prognoz	Uzoq muddatli maqsad va o'sish yo'nalishlarini aniqlash
Pul oqimlari prognozi	Naqd pul harakatlarini oldindan hisoblash

Boshqaruv hisobi asosida ma'lum bir korxonaga, firma yoki tashkilot faoliyatini kelajakdagi sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni prognoz qilish jarayonini tashkil etish o'z ichiga quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olishi mumkin.

<b>Korxonaga faoliyatida prognozlash quyidagi asosiy sohalarda qaror qabul qilishda qo'llaniladi:</b>	
- Ishlab chiqarish hajmini belgilashda: Agar mahsulotga bo'lgan talab prognoz qilingan bo'lsa, korxonaga shu asosda ishlab chiqarish rejasini tuzadi. Misol uchun, agar prognoz natijalariga ko'ra 2025-yilda mahsulotga talab 15% ortishi kutilsa, bu ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qaror qabul qilishga asos bo'ladi.	- Xarajatlar va byudjetlarni rejalashtirishda: Prognozlash orqali kelgusi davrdagi xarajatlar miqdori oldindan aniqlanadi. Bu byudjetlar tuzishda, moliyaviy intizomni saqlashda va sarf-harajatlarni optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi.
- Kadrlar siyosatini shakllantirish: Kelajakdagi ishlab chiqarish hajmi asosida ishchi kuchi ehtiyoji ham prognoz qilinadi. Misol uchun, yangi loyiha asosida ishlab chiqarish liniyasi ochilsa, zarur yangi mutaxassislarni yollash qarori qabul qilinadi.	- Marketing va savdo strategiyasini aniqlash: Bozor tahliliga asoslangan prognozlash orqali mahsulot narxi, talab va raqobatchilar harakatini oldindan baholash mumkin. Bu esa sotuv strategiyasini aniqlash va reklama rejasini tuzishda yordam beradi.

**Amaliy misol:** "Navruz Tekstil" MChJ

*Vaziyat:* 2024-yil natijalari asosida “Navruz Tekstil” kompaniyasi 2025-yilga mahsulot savdosini prognoz qildi.

*Prognoz natijasi:* Savdo hajmi 10 % ortishi kutilmoqda.

*Qabul qilingan qarorlar:*

- Ishlab chiqarish sexida 2 ta yangi tikuv mashinasi sotib olindi.
- 8 nafar qo‘shimcha ishchi yollandi.
- Marketing budjeti 15 %ga oshirildi.
- Xom ashyo zaxiralari yil boshidayoq shartnoma asosida ta‘minlandi.

*Natija:* Rejalashtirilgan o‘shishga erishildi, kompaniya savdosi haqiqatan 11 %ga o‘ydi.

## **XULOSA**

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, boshqaruv hisobida prognozlash usullaridan samarali foydalanish korxonaga ichki va tashqi omillar ta‘sirini oldindan baholab, iqtisodiy xavflarni kamaytirish imkonini beradi. “Navruz Tekstil” MChJ misolida ko‘rib chiqilganidek, oldindan tuzilgan prognoz asosida investitsiya va marketing qarorlarining samarali qabul qilinishi natijasida savdo hajmi va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘shish qayd etilgan. Bu esa prognozlashning real amaliyotdagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Ish yakunida taklif etilgan jadval va grafiklar esa tahlilni vizual ko‘rinishda ifodalab beradi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ахмедов А.А., Турсунов Б.О. Бухгалтерия ҳисоби ва аудит асослари. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2020. – 256 б.
2. Zaripov, A. (2022). The combination of lyrical mood and the image of nature in the poetry of Abdullah Oripov. *Gospodarka i Innowacje.*, 27, 130-133.
3. Zaripov, A., Abduvoitova, N., & Ravufov, B. (2024). Theoretical foundations of management of the reproductive process in agriculture and investments in agriculture. *Modern Science and Research*, 3(2).
4. Zaripov, A., Anvarov, S., & Shamsiddinov, A. (2024). Qishloq xo‘jaligidagi investitsiya jarayoni. *Modern Science and Research*, 3(5), 484-490.
5. Ткачѐва, А. (2018). Изображение смертных грехов в «книге о благой любви» хуана руиса. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 3(2 (67)), 42-46.
6. Aleksandrovna, T. A., & Stanislavovna, S. L. (2022). The actualization of the frame dolor within the framework of morbial metaphoric model in spanish poetic discourse. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(3), 350-354.
7. Saodat, I. Ko‘k” leksemasining etimologik tavsifi. *O‘zbekiston*, 75.